



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

5 (79) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV(Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

5 (79)

2025

май

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.04.2025, Accepted: 10.05.2025, Published: 15.05.2025

UDK 616:504.05:614.7

ICHKI KASALLIKLARNI KELTIRIB CHIQRUVCHI EKOLOGIK OMILLAR

¹Xolboboyeva Shaxnoza Asadullayevna <https://orcid.org/0009-0008-2123-6991>

Markaziy Osiyo Tibbiyot Universitety O'zbekiston, Farg'ona, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi 64
tel:+998 95 485 00 70 e-mail: info@camuf.uz

✓ Rezyume

Mazkur maqolada ekologik omillarning inson salomatligiga, xususan, ichki kasalliklar rivojlanishiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri tahlil qilingan. Atmosfera havosining ifloslanishi, ichimlik suvi va oziq-ovqat tarkibidagi toksik moddalar, radiatsiya, elektromagnit nurlanish hamda sanoat chiqindilari kabi omillar yurak-qon tomir, nafas yo'llari, ovqat hazm qilish va endokrin tizim kasalliklarining etiologiyasida muhim rol o'ynashi qayd etilgan. [1] Tadqiqot davomida JSST, O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi va ekologik monitoring xizmatlari ma'lumotlariga asoslanib, ekologik omillar va kasallanish o'rtasidagi statistik bog'liqlik aniqlandi. Shuningdek, maqolada kasalliklarning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular ekologik xavfsizlikni ta'minlash, sog'lom muhit yaratish va aholining umumiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan. [1,7,8]

Kalit so'zlar: ekologik omillar, ichki kasalliklar, atmosfera ifloslanishi, suv sifati, oziq-ovqat xavfsizligi, radiatsiya, jamoat salomatligi

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ВНУТРЕННИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ

Холбобоева Шахноза Асадуллаевна.

Среднеазиатский медицинский университет Узбекистан, г. Фергана, ул. Бурхониддина
Маргинони, 64 телефон: +998 95 485 00 70 e-mail: info@camuf.uz

✓ Резюме

В данной статье проанализировано негативное влияние экологических факторов на здоровье человека, в частности на развитие внутренних заболеваний. Установлено, что загрязнение атмосферного воздуха, наличие токсичных веществ в питьевой воде и продуктах питания, радиация, электромагнитное излучение, а также промышленные отходы играют значительную роль в этиологии заболеваний сердечно-сосудистой, дыхательной, пищеварительной и эндокринной систем. В ходе исследования, на основе данных Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), Министерства здравоохранения Узбекистана и служб экологического мониторинга, выявлена статистическая взаимосвязь между экологическими воздействиями и заболеваемостью. Кроме того, в статье представлены научно обоснованные рекомендации по профилактике заболеваний, направленные на обеспечение экологической безопасности, создание здоровой среды и улучшение общественного здоровья

Ключевые слова: экологические факторы, внутренние заболевания, загрязнение воздуха, качество воды, безопасность пищевых продуктов, радиация, общественное здоровье

ECOLOGICAL FACTORS CAUSING INTERNAL DISEASES

Xolboboyeva Shaxnoza Asadullayevna

Central Asian Medical University Uzbekistan, Fergana, Burhoniddin Marginoniy Street 64
tel:+998 95 485 00 70 e-mail: info@camuf.uz

✓ Resume

This article analyzes the negative impact of environmental factors on human health, particularly on the development of internal diseases. It has been established that air pollution, the presence of toxic substances in drinking water and food, radiation, electromagnetic exposure, and industrial waste play a significant role in the etiology of cardiovascular, respiratory, digestive, and endocrine system diseases. Based on data from the World Health Organization (WHO), the Ministry of Health of Uzbekistan, and environmental monitoring services, the study identifies a statistical correlation between environmental influences and disease incidence. Furthermore, the article presents scientifically grounded recommendations for disease prevention, aimed at ensuring environmental safety, creating a healthy environment, and improving public health

Keywords: *environmental factors, internal diseases, air pollution, water quality, food safety, radiation, public health*

Dolzarbligi

Hozirgi kunda ekologik muhitda yuzaga kelayotgan salbiy o'zgarishlar nafaqat atrof-muhitga, balki inson salomatligiga ham jiddiy tahdid solmoqda. Ichki kasalliklarning ko'plab turlari aynan ekologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, mazkur mavzuni o'rganish tibbiyot sohasi uchun muhim va dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada ichki kasalliklarning rivojlanishida ekologik omillarning o'rni tahlil qilinib, ularning sog'liq uchun xavfi statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan. [1].

Tadqiqot maqsadi: 2023-yil O'zbekiston bo'yicha rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, atmosferaning ifloslanishi bilan bog'liq surunkali bronxit va yurak-qon tomir kasalliklari har 100 000 aholiga 8200 holatni, iflos ichimlik suvi tufayli paydo bo'ladigan gepatit A va diareya esa 9500 holatni tashkil etgan. Oziq-ovqatdagi pestitsid qoldiqlari bilan bog'liq allergik va me'da-ichak kasalliklari har 100 000 kishiga 6700 holatga yetgan. Radiatsion xavf zonalarida yashovchilar orasida onkologik kasalliklar 1100 holat bilan qayd etilgan. Ushbu raqamlar ekologik omillarning ichki kasalliklar etiologiyasida yetakchi o'rin tutishini tasdiqlaydi. Maqolada ushbu xavflarni kamaytirish bo'yicha profilaktik va tizimli yondashuvlar dolzarb hisoblanadi.

Material va usullar

So'nggi yillarda sanoat korxonalarining ko'payishi, transport vositalari sonining ortishi, yerni noto'g'ri ishlatish natijasida ekologik muvozanat buzilmoqda. Bu esa inson salomatligiga turli xavfli kasalliklar ko'rinishida aks etmoqda. Ushbu maqolada ichki kasalliklarga olib keluvchi asosiy ekologik omillar tahlil qilinadi.

XXI asrda sanoat va urbanizatsiya jadal sur'atlar bilan rivojlanar ekan, ekologik muhitga bo'lgan antropogen bosim keskin oshib bormoqda. Ayni paytda ekologik muhitning yomonlashuvi inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida tan olinmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) 2023-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 7 milliondan ortiq odam ekologik omillar bilan bog'liq kasalliklar natijasida vafot etmoqda. [7].

O'zbekiston sharoitida ham bu muammo dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda so'nggi 10 yil ichida nafas yo'llari kasalliklari 1, 8 barobarga, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari esa 2,3 barobarga oshgani kuzatilgan. Ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi aholining 63 foizi surunkali ichki kasalliklardan aziyat chekmoqda (O'zbekiston SSV, 2023). [1]. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, havodagi PM2.5 zarrachalari va NO₂ gazining ortiqcha miqdori yurak ishemik kasalligi, bronxial astma, o'pka emfizemasi kabi kasalliklar xavfini 40–65 foizgacha oshiradi.

Natija va tahlillar

Ichimlik suvidagi nitratlarning me'yoridan yuqori bo'lishi esa gepatit A, oshqozon-ichak infeksiyalari, buyrak faoliyatining buzilishi bilan bog'liq kasalliklar sonini ikki barobarga ko'paytirgan. Radiatsion fon yuqori bo'lgan zonalarda esa onkologik kasalliklar 100 000 aholiga nisbatan 1 100 ta holatgacha yetgan. Mazkur holatlar ekologik omillarni ichki kasalliklarning rivojlanishida asosiy risk faktorlaridan biri sifatida ilmiy jihatdan o'rganishni va ularga qarshi samarali profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu boisdan ushbu maqolada ekologik omillarning asosiy turlari, ularning ichki kasalliklar rivojlanishiga ta'sir mexanizmi va statistik asoslari keng yoritiladi hamda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Maqsad va vazifalar

- Ekologik omillarni turlarga ajratib tahlil qilish;
- Ularning ichki kasalliklarga ta'sir mexanizmini aniqlash;
- Statistik ma'lumotlar asosida ekologik ta'sir bilan kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish;
- Kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Ekologik omillar ko'p qirrali bo'lib, ularning har biri inson salomatligiga o'ziga xos zarar yetkazadi. Ichki kasalliklarning etiologiyasi va patogenezi ushbu omillar kompleks tarzda ishtirok etadi. Shuning uchun tibbiyotda ularni tizimli ravishda baholab, har bir omilga qarshi maqsadli profilaktika choralarini ishlab chiqish zarur.

Ekologik omillarning turlari va ularning tahlili

Ekologik omil turi	Tavsifi	Ichki kasalliklarga ta'siri
Atmosfera havosining ifloslanishi	CO, NO ₂ , SO ₂ , PM2.5/PM10, chang, sanoat chiqindilari	Bronxit, bronxial astma, yurak ishemik kasalliklari
Ichimlik suvining ifloslanishi	Mikrobiologik (virus, bakteriya) va kimyoviy (nitrat, og'ir metallar)	Diareya, gepatit, buyrak kasalliklari, zaharlanishlar
Oziq-ovqatdagi toksik moddalarning mavjudligi	Pestitsidlar, nitratlar, konservantlar va GMI	Allergiya, gepatoz, gastrit, endokrin buzilishlar
Radiatsion ta'sir	Tabiiy yoki sun'iy radiatsion nurlar, fonning oshishi	Leikoz, saraton, bepustlik, immunitet pasayishi
Shovqin va elektromagnit nurlanish	Uzoq muddatli tovush bosimi va sun'iy elektromagnit maydonlar	Uyqu buzilishi, stress, gipertoniya, yurak ritm buzilishlari
Iqlim va geofizik omillar	Haddan tashqari issiq/sovuq, namlik, shamol, balandlik	Qon bosimining o'zgarishi, revmatik kasalliklar
Sotsial-muhit va ishlab chiqarish sharoiti	Ish joyida toksik moddalar, psixostress, turmush tarzining og'irligi	Neyropsixik buzilishlar, metabolik sindrom, surunkali gastrit

Ekologik omillarning ichki kasalliklarga ta'sir mexanizmlari

Ekologik omil turi	Ta'sir mexanizmi	Rivojlanadigan ichki kasalliklar
Atmosfera havosi ifloslanishi	Zarrachalar (PM2.5) nafas yo'llari orqali alveolalarga kirib, yallig'lanishni kuchaytiradi → gipoksiya	Bronxit, astma, yurak ishemiyasi
Suvning ifloslanishi	Ichimlik suvi orqali virus/bakteriyalar kirib, oshqozon-ichak tizimida infeksiyon yallig'lanish yuzaga keltiradi	Diareya, gepatit A, pielonefrit
Oziq-ovqatdagi toksinlar	Pestitsid va nitratlar gepatotoksik ta'sir ko'rsatadi → jigar fermentlarini buzadi → metabolik disfunktsiya	Gepatoz, gastrit, endokrin buzilishlar
Radiatsion ta'sir	DNK molekulariga zarar yetkazadi → hujayra mutatsiyasi va apoptozni buzadi	Leikemiya, saraton, anemiya
Shovqin va elektromagnit nurlanish	Vegetativ asab tizimi orqali stress gormoni (kortizol) miqdorini oshiradi → qon bosimi ortadi	Gipertoniya, yurak ritm buzilishlari
Iqlim omillari (issiq/sovuq)	Harorat o'zgarishi termoregulyatsiya tizimini buzadi → qon aylanish va yurak yuklanishi ortadi	Revmatizm, yurak-qon tomir kasalliklari
Ishlab chiqarish toksinlari	Kimyoviy moddalar orqali jigar, buyrak va o'pka hujayralari zararlanishi	Surunkali gepatit, bronxit, buyrak yetishmovchiligi

Umumiy patogenetik yo'nalishlar:

1. Yallig'lanish jarayonining kuchayishi (inflammatsiya)
2. Immun tizimning susayishi
3. Toksinlar yoki mutagenlar ta'siri ostida hujayra strukturasi buzilishi
4. Metabolik buzilishlar
5. Organ va tizimlar funksional yetishmovchiligi

Bu mexanizmlar asosida ekologik omillar ichki kasalliklarning boshlanishi va surunkali shaklga o'tishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Quyida statistik ma'lumotlar asosida ekologik omillar bilan ichki kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan va jadval ko'rinishida keltirilgan. Bu bog'liqlik rasmiy ma'lumotlar (JSST, O'zbekiston Respublikasi SSV) asosida shakllantirilgan.

Ekologik ta'sir va ichki kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlik (statistik tahlil)

Ekologik omil	Ta'sir manbai	Kasallik turi	100 000 aholiga nisbatan kasallanish holatlari (2023, O'zR)
Atmosfera havosi ifloslanishi	PM2.5, NO ₂ , chang, CO	Bronxit, bronxial astma, yurak IHD	8200 ta
Ichimlik suvining ifloslanishi	Bakteriyalar, nitratlar	Diareya, gepatit A, pielonefrit	9500 ta
Oziq-ovqat toksikligi	Pestitsidlar, konservantlar	Allergiya, gastrit, gepatoz	6700 ta
Radiatsiya fonining yuqoriligi	Uran, radon, texnogen chiqindilar	Onkologik kasalliklar	1100 ta
Elektromagnit nurlanish va shovqin	Uyali aloqa minoralari, transport	Stress, uyqusizlik, gipertoniya	4500 ta (aniqlangan kasalliklar umumiy soni)
Sanoat chiqindilari	Kimyoviy toksinlar	Jigar, buyrak, qon kasalliklari	3800 ta

Xulosa

Ekologik omillar eng ko'p ichki nafas yo'llari, ovqat hazm qilish, yurak-qon tomir va jigar kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Statistik ma'lumotlar ekologik holat yomon bo'lgan hududlarda kasallanish ko'rsatkichlari 2–3 barobar yuqoriligini ko'rsatadi. Masalan, atmosferasi nisbatan toza viloyatlarda bronxit holatlari ~3200/100 000 bo'lsa, yirik sanoat shaharlarda bu ko'rsatkich 8200/100 000 ga yetadi. [12,13].

Ichki kasalliklarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar (ekologik asosda)

1. Atmosfera havosi ifloslanishi bilan kurashish:

- Aholi gavjum hududlarda yashil zonalarini kengaytirish (har 1000 aholi uchun kamida 50 m² yashil hudud).
- Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (niqoblar, havo filtrlari).
- Transport harakati zich joylarda piyodalar va bolalar bog'chalari sonini kamaytirish.

2. Ichimlik suvi sifatini nazorat qilish:

- Suvni filtrlash va qaynatish orqali mikroblardan tozalash.
- Sog'liqni saqlash xizmatlarida doimiy suv tahlillari o'tkazish.
- Xavfli hududlarda dezinfeksiya punktlarini tashkil etish.

3. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash:

- Faqat sertifikatlangan mahsulotlar iste'mol qilish.
- Uy sharoitida yetishtirilgan mahsulotlarda pestitsidlar miqdorini nazorat qilish.
- Mahalliy laboratoriyalarda oziq-ovqat tahlillarini yo'lga qo'yish.

4. Radiatsiyadan himoyalanih:

- Potensial xavf zonalarida (masalan, Nukus yoki sanoat chiqindilari yaqinida) radiatsion monitoring olib borish.
- Binolarni qurishda radiatsiyaga chidamli materiallardan foydalanish.
- Aholini radiatsion xavfsizlik bo'yicha o'qitish.

5. Elektromagnit nurlanish va shovqindan himoyalanih:

- Uyali aloqa minoralarini aholidan uzoq joylarda o'rnatish.
- Bolalar muassasalarida elektromagnit kuchli qurilmalardan foydalanishni cheklash.
- Shovqin darajasi me'yordan oshsa—akustik izolyatsiya vositalarini qo'llash.

6. Ishlab chiqarish va mehnat gigiyenasiga rioya qilish:

- Ish joylarida muntazam tibbiy ko'riklar o'tkazish.
- Kimyoviy moddalar bilan ishlovchi xodimlar uchun individual himoya vositalari bilan ta'minlash.
- Korxonalarda ekologik xavf tahlilini o'tkazish va tashqi chiqindilarni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish.

Umumiy profilaktik yondashuvlar:

1. Ekologik ta'lim va axborot tarqatish (maktablar, tibbiy muassasalar orqali).
2. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish: toza ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni boshqarish.
3. Davlat miqyosida "Ekologik salomatlik dasturlari"ni amalga oshirish.

Ilmiy tadqiqotlar va natijalar:

Ekologik omil turi	Bog'liq kasalliklar	Statistik ma'lumotlar (O'zbekiston, 2023)
Atmosfera havosi ifloslanishi	Bronxit, astma, yurak ishemiyasi	Toshkent shahri: 100 ming kishida 8200 holat
Ichimlik suvi sifatining pastligi	Gepatit A, diareya, nefrit	Qashqadaryo viloyati: 100 mingda 9500 holat
Oziq-ovqatdagi pestitsidlar	Allergiya, gastrit, gepatoz	Farg'ona viloyati: 100 mingda 6700 holat
Radiatsion fonning oshishi	Onkologik kasalliklar, anemiya	Nukus shahri: 100 mingda 1100 holat

Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, havoning ifloslanishi bo'yicha yetakchi hududlarda surunkali bronxit va yurak-qon tomir kasalliklari tez-tez uchramoqda. Sifatsiz ichimlik suvi tufayli buyrak va ovqat hazm qilish organlari bilan bog'liq kasalliklar keng tarqalgan. [11,12,13,14,15].

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, ekologik omillar ichki kasalliklarning rivojlanishida muhim etiologik va patogenetik rol o'ynaydi. Atmosfera havosining ifloslanishi, suv va oziq-ovqat tarkibidagi kimyoviy moddalarning ortiqchiligi, shuningdek radiatsiya va elektromagnit nurlanish inson organizmida surunkali, ko'p hollarda yashirin kechuvchi jarayonlarni boshlab beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik xavfsizlik past bo'lgan hududlarda yurak-qon tomir, nafas yo'llari, ovqat hazm qilish va endokrin kasalliklarning uchrashi yuqori darajada.

Kasalliklarning oldini olish uchun atrof-muhit monitoringini kuchaytirish, xavfli hududlarda yashovchi aholining muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi, ekologik toza mahsulotlar iste'molini rag'batlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish zarur. Shu bois, ekologik omillar va ichki kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur ilmiy o'rganish, bu boradagi sog'liqni saqlash strategiyalarini takomillashtirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash—jamoat salomatligini yaxshilashda muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hisobotlari, 2023.
2. "Ekologiya va salomatlik" — Tibbiyot jurnali, 2022.
3. WHO. Air Pollution and Health. Geneva, 2021.
4. FAO. Food Safety Indicators in Central Asia. Rome, 2020.
5. Xudoyqulov A. "Ichki kasalliklar propedevtikasi", Toshkent, 2019.
6. Karimov F. "Atrof-muhit va inson salomatligi", Samarqand, 2021.
7. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Ambient air pollution: Health impacts. WHO Report, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Aholining sog'lig'i va atrof-muhit monitoringi bo'yicha yillik statistik ma'lumotlar. Toshkent, 2023.
9. Karataev Sh.A., Xalimova N.M. Ekologiya va inson salomatligi. – Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi, 2021.
10. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook: Healthy Planet, Healthy People. 2022.
11. Nazarova L.N. Ichki kasalliklar va ekologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik. – "Tibbiyotda innovatsiyalar" jurnali, №4, 2022.
12. Ghosh R., Causey K., Burkart K., et al. Ambient air pollution and risk of hospitalization for cardiovascular and respiratory diseases. The Lancet Planetary Health, 2022; 6(3): e174–e183.
13. Yuldashev B.R., Abdurahmonova G.Sh. Suv sifatining aholi salomatligiga ta'siri. – "Gigiyena va sanitariya" jurnali, №2, 2023.
14. World Bank. The Cost of Air Pollution: Strengthening the Economic Case for Action. Washington, 2022.
15. Bekmurodov Sh., Jo'rayev D. Radiatsion xavfsizlik va onkologik kasalliklar statistikasi. – O'zbekiston onkologiya markazi nashri, 2021.
16. FAO. Food Safety and the Environment: Challenges and Opportunities. Rome, 2022.

Qabul qilingan sana 20.04.2025